

**PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARI O'QUVCHILARINING
IQTISODIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING
PEDAGOGIK DASTURIY VOSITALARI VA ULARNING DIDAKTIK
XUSUSIYATLARI**

Xamidova Dilorom Muhitdinovna

Xalqaro innovatsion universiteti

"Iqtisod va moliya" kafedrası o'qituvchisi

Email: diloromxm@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13995640>

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'quvchilarining iqtisodiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun pedagogik dasturiy vositalar muhim ahamiyatga ekanligi, o'quvchilarining iqtisodiy kompetensiyalarini rivojlantirishda pedagogik dasturiy vositalari va ularning didaktik xususiyatlarining nazariy asoslari, axborot oqimining jadal o'sishi sharoitida mustaqil ravishda ijodiy va tanqidiy fikrlay oladigan, raqamli va pedagogik dasturiy vosita-axborot kompetentligiga ega shaxsni rivojlantirishning samarali vositasi sifatida ta'limni elektron ta'limiy pedagogik dasturiy vosita muhitda tashkil etish va o'tkazishning nazariy, tarixiy va metodik jihatdan sog'lom g'oyasini yaratish zaruratining tashkiliy shakllari va mazmuniy xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: kasbiy faoliyat, pedagogik dasturiy vositalar, iqtisodiy kompetentlik, modernizasiyalash, ta'lim sifati, mantiqiy fikrlash, axborot oqimi, mustaqil ravishda ijodiy va tanqidiy fikrlay olish, elektron ta'lim, tashkiliy shakllari va mazmuniy xususiyatlar.

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические основы педагогических программных средств и их дидактических характеристик в развитии экономических компетенций учащихся, цифровые и педагогические программные средства как эффективное средство развития личности с информационной компетенцией, способной самостоятельно творчески и критически мыслить в условиях стремительного роста информационных потоков. учебно-педагогическое программное обеспечение освещаются организационные формы и содержательные особенности необходимости создания теоретико-исторического и методологически обоснованного представления об организации и проведении в средовой среде.

Ключевые слова: профессиональная деятельность, педагогические программные средства, экономическая компетентность, модернизация,



качество образования, логическое мышление, информационный поток, способность к самостоятельному творческому и критическому мышлению, электронное обучение, организационные формы и содержательные особенности.

Annotation. This article highlights the importance of pedagogical software tools for the development of economic competencies of its students, the theoretical foundations of pedagogical software tools and their didactic properties in the development of economic competencies of its students, the organizational forms and content features of the need to create a theoretically, historically and methodically healthy idea of organizing and conducting education in an environment as an effective means

Keywords: professional activity, pedagogical software tools, economic competence, modernization, educational quality, logical thinking, information flow, independent creative and critical thinking, e-learning, organizational forms and content characteristics.

Bugungi kunda “Harakatlar strategiyasi” asosida ijtimoiy sohalarni rivojlantirish bilan bogʻliq taʼlim sohasini rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish boʻyicha bir qancha maqsadli dasturlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Vazirlar Mahkamasining “Umumiy oʻrta va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimining davlat taʼlim standartlarini tasdiqlash toʻgʻrisidagi” qarorining qabul qilinishi taʼlim tizimida oʻqitishga nisbatan tubdan yangicha yondashishni taqozo etmoqda. Yaʼni umumtaʼlim fanlarini oʻqitishda zamonaviy metodologiyani qoʻllash, taʼlim jarayoniga kompetentlik nuqtayi nazaridan yondashish orqali taʼlim oluvchilarning layoqatlilik darajasini oshirish maqsad qilib olingan. Mazkur DTSning eʼtiborli tomoni shundaki, oʻquvchilarda oʻzlashtirilgan bilim, koʻnikma va malakalarni amaliyotda qoʻllay olish, tayanch va fanga oid kompetensiyalarga ega boʻlish xususiyatlarini shakllantirish va rivojlantirish alohida inobatga olingan. Kommunikativ, axborotlar bilan ishlash, oʻzini oʻzi rivojlantirish, ijtimoiy faol fuqarolik, milliy va umummadaniy, matematik, iqtisodiy va moliyaviy savodxonlik. fan va texnika yangiliklaridan xabardor boʻlish hamda ulardan amaliyotda foydalana olish kabi tayanch kompetensiyalarni oʻquvchilarda shakllantirilishi bitiruvchilarning aqlan va ruhan kamol topishiga, kelajakda yetuk mutaxassis boʻlishiga asos boʻladi.

Kompetentlik deganda, koʻpincha shaxsning faoliyat yuritishga umumiy qobiliyati va uning kasbiy tayyorgarligida namoyon boʻluvchi bilim va tajribalariga asoslangan integratsiyalashgan sifatlar nazarda tutiladi. Kompetentlik – shaxsiy sifatlar toʻplami boʻlib, muayyan sohadagi vazifalarni



egallangan muhim, doimiy rivojlanib boruvchi kompetensiyalar asosida bajara olish qobiliyati, iqtisodiy kompetentlik esa bu - jamiyat rivojlanishiga mos iqtisodiy bilim, ko'nikma, malakalarni doimiy egallab borish qobiliyati bo'lib, turli iqtisodiy vaziyatlarda ularning amaliyotga maqsadli tatbiqi bilan bog'liq shaxsiy rivojlanib boruvchi sifatlar yig'indisidir. A.Yu.Misailovning fikricha, iqtisodiy kompetentlikning tarkibi bir biriga bog'liq bo'lgan quyidagi komponentlardan iborat:

- motivatsion – jamlangan va yetarlicha barqaror ehtiyojlar tizimi, iqtisodiy faoliyat uchun muhim sabablar, turli iqtisodiy kompetensiyalarga ega bo'lishga qiziqish bilan tavsiflanuvchi;
- kognitiv – asosiy iqtisodiy tushunchalarni ifodalovchi tizim (iqtisodiyot, iqtisodiy qonunlar, talab, taklif, mahsulot), iqtisodiy nazariyalar, tushunchalar, modellar, davlatning iqtisodiy siyosatini olib borishga yondashuvlar, iqtisodiyotning xalqaro muammolari; kasbiy faoliyatda iqtisodiyot asoslari (qonunlar, korxonaning iqtisodiy faoliyati usullari, iqtisodiy rejalashtirish, nazorat va audit va boshqalar);
- amaliy - iqtisodiy muammolar va vaziyatlarni hal qilish, iqtisodiy ko'nikma va qobiliyatlar kombinatsiyasiga asoslangan iqtisodiy hisob-kitoblarni olib borish, biznes rejalarni tuzish, buxgalteriya hisobini yuritish, turli xil iqtisodiy vaziyatlarda kasbiy muammolarga iqtisodiy yechim tanlashni amalga oshirish, iqtisodiy faoliyatda axborot texnologiyalaridan foydalanish, fuqarolik iqtisodiy xatti-harakatlariga rioya qilish va boshqalar;
- shaxsiy - bir qator muhim iqtisodiy fazilatlardan iborat: faollik, mustaqillik, ijodkorlik, samaradorlik, mehnatsevarlik, qat'iyatlilik, tashabbuskorlik.

Ye.A.Varkinaning ilmiy ishlarida «iqtisodiy kompetentlik - bu shaxsning integrativ sifati bo'lib, maxsus kompetensiyalar (marketing, tadbirkorlik, xo'jalik-huquqiy) majmui bilan tavsiflanadi shuningdek, egallangan iqtisodiy bilim, ko'nikma va tajribalarni va ma'lum faoliyat usullarini qo'llay olish qobiliyatini aks ettirib, ustuvor qadriyatlar va motivlar bilan tartibga solinadigan doimiy shaxsiy rivojlanish asosida ta'lim muassasasi faoliyatini ta'minlashdir deb ta'riflangan.

Iqtisodiy kompetentsiyani rivojlantirish nafaqat iqtisodiy bilimlar va ko'nikmalarni shakllantirishga, balki ularga nisbatan shaxsiy ma'noni aniqlashga, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy xususiyatlar va xatti-harakatlar normalarini takomillashtirishga yordam beradi. O'zlashtirilgan iqtisodiy bilimlarni shaxs va davlat manfaati yo'lida amaliyotda qo'llashda



ishtirok etish. Zamonaviy kompetensiyaga asoslangan ta'limning muhim vazifasi o'quvchilarning iqtisodiy kompetensiyasining muhim xususiyatlarini aniqlashdir. Hozircha uni hal qilishning asosiy yondashuvlari belgilanmoqda.

Pedagogik dasturiy vositalar – kompyuter texnologiyalari yordamida o'quv jarayonini qisman yoki to'liq avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan didaktik vosita hisoblanadi va zamonaviy texnologiyalarning o'qitish vositasi sifatida ishlatiladi.

Ularning tarkibiga: o'quv fani bo'yicha aniq didaktik maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan dasturiy mahsulot (dasturlar majmuasi), texnik va metodik ta'minot, qo'shimcha yordamchi vositalar kiradi.

Pedagogik dasturiy vositalarning iqtisodiy kompetensiyalarning rivojlanishidagi o'rni juda muhimdir. Ushbu vositalar ta'lim jarayonida talabalarga iqtisodiy bilimlar va ko'nikmalarni etkazishda, shuningdek, ularning amaliy faoliyatlarini rivojlantirishda yordam beradi.

Pedagogik dasturiy vositalarning interaktiv o'quv materiallari yordamida talabalar iqtisodiy nazariyalarni osonroq o'zlashtirishi va amaliy misollar bilan ishlashlari oson bo'ladi.

Pedagogik dasturiy vositalarni quyidagilarga ajratish mumkin:

- o'rgatuvchi dasturlar – o'quvchilarning bilim darajasi va qiziqishlaridan kelib chiqib yangi bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltiradi;
- test dasturlari – egallangan bilim, malaka va ko'nikmalarni tekshirish yoki baholash maqsadlarida qo'llaniladi;
- mashq qildirgichlar - avval o'zlashtirilgan o'quv materialini takrorlash va mustahkamlashga xizmat qiladi;
- o'qituvchi ishtirokidagi virtual o'quv muhitini shakllantiruvchi dasturlar.

Pedagogik dasturiy vositalarni tayyorlash texnologiyasini amalga oshirish maqsadida ularning an'anaviy vositalardan ustunligini tasdiqlovchi qator ijobiy omillar mavjud. Mazkur omillar didaktik, psixologik, iqtisodiy, fiziologik guruhlariga ajratildi.

Didaktik talablarga : ilmiylik, tushunarli, qat'iy va tizimli bayon etilishi bilan birgalikda, uzluksizlik va yaxlitlik, izchillik, muammolilik, ko'rgazmalilik, faollashtirish, o'qitish natijalarini o'zlashtirish mustahkamliligi, muloqotning interfaolliligi, o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish va amaliyotning yaxlit birligi.

Metodik talablarga: aniq o'quv fanining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, ma'lum bir faning o'ziga xosligini hisobga olish, axborotni zamonaviy metodlari o'zaro bog'liqliligi, o'zaro aloqadorliligi, turli-tumanligi, amalga oshirilishi.



Psixologik talablarga idrok etish, tafakkur, diqqati, motivasiya, xotira, tasavvuri, yoshi va individual psixologik xususiyatlarini hisobga olish kiradi.

Fanlardan yaratiladigan pedagogik dasturiy vositalar quyidagi metodik talablarga javob berishi kerak:

1. Pedagogik dasturiy vositalar – o`quv materialini taqdim etishning tushunchali, obrazli va harakatli komponentlarining o`zaro bog`liqligiga tayangan holda qurilishi.

2. Pedagogik dasturiy vositalar o`quv materialini yuqori tartibli tuzilma ko`rinishida ta`minlashi. Fanlararo mantiqiy o`zaro bog`liqlikning hisobga olinishi.

3. Pedagogik dasturiy vositalarda ta`lim oluvchiga o`quv materialini bosqichma-bosqich o`zlashtirganligini turli xildagi nazoratlarni amalga oshirish asosida aniqlash imkoniyatlarining yaratilishi.

2. Pedagogik dasturiy vositalar yaratishga qo`yiladigan talablar.

3. Mualliflik dasturlari turlari

Pedagogik dasturiy vositalar –kompyuter texnologiyalari yordamida o`quv jarayonini qisman yoki to`liq avtomatlashtirish uchun mo`ljallangan didaktik vosita hisoblanadi. Ular ta`lim jarayonini samaradorligini oshirishning istiqbolli shakllaridan biri hisoblanib, zamonaviy texnologiyalarning o`qitish vositasi sifatida ishlatiladi. Pedagogik dasturiy vositalar tarkibiga: o`quv fani bo`yicha aniq didaktik maqsadlarga erishishga yo`naltirilgan dasturiy mahsulot (dasturlar majmuasi), texnik va metodik ta`minot, qo`shimcha yordamchi vositalar kiradi. Pedagogik dasturiy vositalarga qo`yiladigan didaktik talablarga quyidagilar kiradi: ilmiylik, tushunarli, qat`iy va tizimli bayon etilishi bilan birgalikda (pedagogika, psixologiya, informatika, ergonomikaning asosiy tamoyillarini, zamonaviy fanning fundamental asoslarini hisobga olib, o`quv faoliyati mazmunini qurish imkoniyatini ta`minlash), uzluksizlik va yaxlitlik (ilgari o`rganilgan bilimlarning mantiqiy oqibati hamda to`ldiruvchisi hisoblanadi), izchillik, muammolilik, ko`rgazmalilik, faollashtirish (o`qitish mustaqilligi hamda faollilik xususiyatining mavjudligi), o`qitish natijalarini o`zlashtirish mustahkamliligi, muloqotning interfaolliligi, o`qitish, tarbiyalash, rivojlantirish va amaliyotning yaxlit birligi.

Pedagogik dasturiy vositalarni ishlab chiqish jarayonida ham prinsip va talablarni hisobga olish kerak.

Gorushkin N.N.ning prinsplari orasida 4 guruhni aniqlaydi: • talabalarning fiziologik xususiyatlari;



- kompyuter texnikasining texnik imkoniyatlari;
- dizayndagi pedagogik tavsiyalar;
- yaratilgan pedagogik dasturlarga tizim yondashuvi;

I.Robert pedagogik dasturiy vositalarni rivojlantirishga qo'yiladigan asosiy talablarga quyidagilarni keltiradi:

- pedagogik talablar
- texnik talablar
- ergonomik talablar
- estetik talablar

Pedagogik dasturiy vositalar interaktiv baholash mexanizmlari, testlar va o'z-o'zini baholash dasturlari orqali o'quvchilarga o'z bilim darajalarini aniqlash va o'zlashtirish jarayonini kuzatish imkoniyatini beradi. Bu jarayon o'quvchilarga o'z maqsadlarini belgilash, ularni erishish yo'llarini rejalashtirish va o'z-o'zini rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishga yordam beradi.

Natijada, o'z-o'zini baholash va rivojlantirish jarayoni o'quvchilarning iqtisodiy kompetensiyalarini yanada chuqurroq rivojlantiradi. O'quvchilar mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish va o'z o'rganish jarayonlariga faol ishtirok etish ko'nikmalarini oshiradilar. Shuningdek, bu jarayon o'quvchilarning o'z-o'zini motivatsiya qilish va shaxsiy o'sish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkunki pedadgogik dasturiy vositalar ta'lim jarayonida juda ham ahamiyatlidir.Ta'lim jarayonini olib borishda slayd, videolar, va shunga oxshash qiziqarli vositalardan foydalaniladi. Pedadgogik dasturiy vositalar ta'lim uchun juda keraklidir. Ushbu vositalar o'quv jarayonini samarali tashkil etish, o'quvchilarning iqtisodiy bilim va ko'nikmalarini oshirishga yordam beradi. Ushbu vositalar o'quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy ko'nikmalar bilan bog'lab, ularning iqtisodiy hayotga tayyorgarligini oshiradi. Ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik vositalardan foydalanish, o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi va ularning kompetensiyalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Pozilova (Pedagogik dasturiy vositalar) O'quv qo'llanma. T.:2019
2. Aminov I.B., Bustanov X.A., Raximov S.z.(Axborot texnologiyalari) o`quv qo`llanma
3. M. Karimova "Pedagogik dasturiy vositalar haqida tushuncha" Nov. 7, 2022
4. Овакимян Ye.Ye. Развитие экономической компетентности студентов вузов. Автореферат. - Челябинск, 2010.





5. Мисаилов А.Ю. Компьютерное сопровождение формирования экономической компетентности у студентов учреждений среднего профессионального образования. Автореферат. - М., 2013
6. Xamidova D.M. "Professional ta'lim tizimida iqtisodiy kompetensiyani rivojlantirish jarayoni". Ilm-fan va innovatsiya ilmiy-amaliy konferensiyasi in-academy.uz/index.php/si. 2023
7. Bozarov D. Bo'lajak iqtisodchi talabalarning iqtisodiy kompetensiyasini rivojlantirishning matematik tahlili //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 27. – С. 84-90.
8. Bozarov, D. (2023). Bo'lajak iqtisodchi talabalarning iqtisodiy kompetensiyasini rivojlantirishning matematik tahlili. Академические исследования в современной науке, 2(27), 84-90.
9. Bozarov, D. (2023). Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning iqtisodiy kompetensiyalarini rivojlantirish omillarining tadbiiq etilishi.
10. Bozarov, Dilmurod. Talabalarda iqtisodiy kompetensiyani rivojlantirish usullari. 2023.
11. Bozarov, D., & Rahmonov, B. (2024). Kombinatorikaning paydo bo'lishi va hayotiy masalalarga tadbiiqi. Modern Science and Research, 3(6).
12. Bozarov D. Methods of developing economic competence on the basis of interdisciplinary relationship //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 12. – С. 131-137.

